

41. Ikki xonali sonni bir xonali songa bo'lish

Yondosh mavzu:
shifokor, doktor.

Yig'indi, o'nliklar, birliklar,
yig'indini songa bo'lish.



1. Dorixonachi dorilarni peshtaxtaga bir necha qator qilib taxlayapti. Har bir qatorda nechta dori qutisi turibdi?



6 qatorda
42 quti



3 qatorda
18 quti



5 qatorda
75 quti

Qaysi qator boshqalaridan ajralib turibdi?

2. Hisoblashni davom ettiring. Nimani sezdingiz?

- a) $68 : 2 = (60 + 8) : 2$
- b) $78 : 3 = (60 + 18) : 3$
- d) $145 : 5 = (150 - 5) : 5$
- e) $126 : 7 = (140 - 14) : 7$



Bo'linuvchini bo'lish qulay bo'lgan sonlar yig'indisi yoki ayirmasi ko'rinishiga keltirish mumkin.

$$168 : 6 = (120 + 48) : 6 = 120 : 6 + 48 : 6 = 20 + 8 = 28$$

$$168 : 6 = (180 - 12) : 6 = 180 : 6 - 12 : 6 = 30 - 2 = 28$$

3. Bo'linmani yig'indi yoki ayirma ko'rinishiga keltirib hisoblang.

- a) $44 : 4$
- b) $63 : 3$
- d) $72 : 6$
- e) $95 : 5$

41. Ikki xonali sonni bir xonali songa bo'lish



4. Ifodani yozing va hisoblang.

- a) 7 quti dori uchun 91 ming so'm to'landi. Bitta quti qancha turadi?
- b) 52 ta "Tez yordam" mashinasini 4 ta stansiyaga teng bo'lishdi. Har bir stansiyaga nechtdan mashina berilgan?
- d) 84 metrlik dokani qirqib, 6 metrlik bint tayyorlandi. Bitta dokadan nechta bint chiqar ekan?



5. Kasalxona uchun 135 ta termometr sotib olindi. Termometrlar bir xil qutilarga bir necha donadan solingan ekan. Birinchi bo'limga 2 quti, ikkinchi bo'limga 3 quti, uchinchisiga esa 4 quti yuborildi. Har bir qutida nechtdan termometr bor?

Yechish uchun quyidagi chizmadan foydalaning.



6. Tenglamalarni yeching. Javobini tekshiring.

$$5 \cdot x = 225$$

$$749 : y = 7$$

$$z : 8 = 56$$



7. Hisoblang. Dori tayyorlovchi mutaxassisni nima deb atash mumkinligini toping.

A $70 \cdot 9 + 195$

E $25 \cdot 8 - 163$

S $69 \cdot 8 - 128$

M $57 \cdot 8 + 229$

R $600 : 2 + 127$

V $1800 : 3 - 144$

F $5600 : 80 + 830$

T $8000 : 8 - 210$

900	825	427	685	825	790	424	37	456	790
-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----	----	-----	-----

41. Ikki xonali sonni bir xonali songa bo'lish



8. Misollar to'g'ri yechilganini tekshirib ko'ring. Xato hisoblangan misollarni boshqatdan yeching.

$$\begin{array}{r} 328998 \\ + 49965 \\ \hline 368063 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 745009 \\ - 65937 \\ \hline 720932 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 97350 \\ \times 778440 \\ \hline \end{array}$$



9. Har bir chizma uchun ifoda tuzib, uni yeching.

$$\begin{array}{c} 147 - 93 + 163 - 139 \\ \swarrow \quad \searrow \\ \square : 24 : 8 \\ \downarrow \\ \square \end{array}$$

$$\begin{array}{c} 38 \cdot 9 - 47 \cdot 6 \\ \swarrow \quad \searrow \\ 720 : \square \\ \downarrow \\ \square \end{array}$$



10. Shifoxonada havoni tozalash apparati minut mili 3 bilan 4 o'rtasida yoki 8 bilan 9 o'rtasida turganida ishga tushib ketadi. Bu apparat bir sutkada necha soat ishlaydi?



11. Bo'linuvchini yig'indi yoki ayirma shakliga keltirib hisoblang.

$$76 : 4$$

$$42 : 3$$

$$99 : 9$$

$$85 : 5$$

$$132 : 3$$

$$470 : 5$$

$$144 : 9$$

$$171 : 3$$



12. Bemorga kuniga 4 ta dori ichish buyurildi. Dorilar ikkita idishga solingan. Ularning biriga 80 ta, ikkinchisiga undan 56 ta kam dori solingan. Bemor bu dorilarni necha kun ichadi?